

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK KENGASH**  

---

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**INAGAMOVA FERUZA XURSHITOVNA**

**QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING YOSH OILALAR  
MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI**

**09.00.04 - Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in  
philosophical sciences**

**Inagamova Feruza Xurshitovna**

Qadriyatlar transformatsiyasining yosh oilalar mustahkamligiga ta'siri ..... 3

**Инагамова Феруза Хуршитовна**

Влияние трансформации ценностей на устойчивость молодых семей..... 25

**Inagamova Feruza Khurshitovna**

The effect of the transformation of values on the stability of young families..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....52

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK KENGASH**  

---

**OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**INAGAMOVA FERUZA XURSHITOVNA**

**QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING YOSH OILALAR  
MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI**

**09.00.04 - Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2022.1.PhD/Fal687 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume) Ilmiy kengash veb-saytida ([www.moiti.uz](http://www.moiti.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nurmatova Mukaram Axmedovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Musayeva Nodira Maxmudovna**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Sultanov Sirojbek Habibullayevich**  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik kengashning 2024-yil "13" sentyabr soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi 25-uy. Tel.: (0-371) 267-05-36; faks (71) 267-03-92; E-mail: [mvaointi@exat.uz](mailto:mvaointi@exat.uz), [mvaointi@gmail.com](mailto:mvaointi@gmail.com); web-sayt: [www.moiti.uz](http://www.moiti.uz)

Dissertatsiya bilan Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (5-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi 25-uy. Tel.: (71) 203-01-11, faks: (71) 267-03-92. E-mail: [mvaointi@exat.uz](mailto:mvaointi@exat.uz), [mvaointi@gmail.com](mailto:mvaointi@gmail.com); web-sayt: [www.moiti.uz](http://www.moiti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "2" sentyabrda tarqatildi.

(2025-yil "2" sentyabrdagi 5-raqamli reestr bayonnomasi.)



**N.M.Egamberdiyeva,**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

**S.K.Alimov,**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

**M.I.Xo'jayev,**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bugungi postmodern taraqqiyot davrining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida insoniyat tarixiy tafakkuri va ijtimoiy hayotida transformatsion jarayonlar shiddat bilan yuz bermoqda. Mazkur fenomenal hodisa oila institutining mustahkamligini ta'minlashda asosiy vosita hisoblanuvchi qadriyatlar tizimiga ham ta'sir ko'rsatib, oila ijtimoiy funksiyalari transformatsiyasiga, qadriyatlar tizimining qaytadan shakllanishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan "qadriyatlar transformatsiyasi va oila" dialektikasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, mazkur aloqadorlik natijasida oilalar mustahkamligiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy tendensiyalarning oldini olish va oilalarni mustahkamlash masalasi dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammoga aylanmoqda.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlaridagi yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida oila institutini mustahkamlash, bugungi kunda global ko'lamda ijtimoiy institut sifatida oilalar inqirozining asosiy omillari va ijtimoiy oqibatlarini, qadriyatlar transformatsiyasi kabi ijtimoiy ong hamda tafakkur bilan bog'liq tendensiyalarning yosh oilalar aksiologik qiyofasiga ta'siri kabi muammolarning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini o'rganishga doir tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, yosh oilalar mustahkamligida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini, davlat va jamiyat tomonidan yosh oilalarni pedagogik, psixologik, iqtisodiy, huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning zarurati, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarning ijtimoiy-aksiologik tizimdagi o'rnini tadqiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Mamlakatimizda ham oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog'lom axloqiy, ma'naviy muhitni shakllantirish, qadriyatlar transformatsiyasining oiladagi qadriyatlar tizimiga salbiy ta'sirini kamaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa, bugungi global o'zgarishlar sharoitida jamiyatning mikro modeli hisoblanuvchi oila institutini qadriyat sifatida saqlab qolish, yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarga nisbatan ijobiy qarashlarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, "Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari misli ko'rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda"<sup>1</sup>. Shu sababli yurtimizda oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh oilalar mustahkamligini ta'minlash, oilada farzandlarni an'anaviy qadriyatlarga sodiqlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayotga ma'naviy-axloqiy jihatdan tayyorlash kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 7-martdagi

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak // Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 22.12.2023 // <https://president.uz/uz/lists/view/6941>

PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 21-dekabrdagi PF-208-son “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 1-martdagi PQ-146-son “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik-huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Oila instituti genezisi, oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy, demografik, antropologik, etnografik va teologik masalalari qadim davrlardan ilm ahlining diqqatini tortib keladi. Diniy-falsafiy manbalar hisoblangan “Rigveda”, “Mahabhorat”, “Dxammapada”, “Dao de szin”, “Lun Yuy”, “Mo szi”, “Avesto”, “Tavrot”, “Injil”, (“Yangi ahd”), Qur’oni karim, hadisi shariflar kabi qadimgi manbalardan tortib to F.Akvinskiy, F.Bekon, T.Gobbs, M.Monten, Fransua de Laroshfuko, B.Mandevil, D.Yum, J.J.Russo, L.Morgan, I.Kant, Gegel, A.Shopengauer, F.Engels, F.Nisshe, Z.Freyd, K.G.Yung, V.Solovev, V.Rozanskiy, N.Berdyaev, Otto Veyninger, M.Mid, L.Stoun, A.Rossi, E.Badinter, M.Uest, M. Konner, E.Bern, E.Erikson, E.Fromm, A.Maslou, P.Byukenen kabi tadqiqotchilar asarlarida muammoga oid fikrlar, ilmiy-nazariy yondashuvlar, konsepsiyalar uchraydi. Ularda keltirilgan ilmiy-nazariy xulosalar, ayniqsa, oila mustahkamligi va qadriyatlar o‘rtasidagi diaxron aloqalarga oid fikrlar hozirgacha o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Muammoning ayrim masalalarini MDHdagi I.Andreeva, A.Guliga, I.Saxarov, L.A.Faynberg, Y.I.Semyonov, I.Zabelin, O.Suxareva, A.Lobacheva, A.I. Jelyabovskiy, I.Kon, L. Kovar, M.Maskovskiy, T.Zolotova, V.Vladin, D.Kapustin, Yu.Prokopenko, M.Kosven, A.G.Xarchev, N.G.Yurkevich, L.Y.Darskiy, N.A.Kislyakov kabi tadqiqotchilar o‘rganishgan. Ularning asarlarida oiladagi milliy va internasonal an‘analar, qadriyatlarning oila mustahkamligi va bola tarbiyasiga ta’siri muammolari tadqiq etiladi. Bu boradagi ilmiy-nazariy fikrlar mavzuimizning obyektiv va ijtimoiy-falsafiy yondashuv doiralarini aniqlab olishga yordam beradi.

Mamlakatimizda oila masalalari ilmiy talqini uzoq davrlardan o‘rganilib kelingan bo‘lib, A.Yugnakiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Husayn Voiz Koshifiy, Rizouddin ibn Faxruddin, A.Donish, A.Avloniy, Fitrat asarlarida muhokama qilinadi, oila tarbiyasiga oid qimmatli didaktik tavsiyalar beriladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda oila muammolarining falsafiy jihatlarini E.Yusupov, S.Shermuhamedov, V.Alimasov, X.O.Shayxova, Y.Ziyomuhamedov, M.Xalmatova, O.Nishonova, M.Nurmatova, huquqiy jihatlarini A.Saidov, F.Otaxo‘jayev, O.Xusanov, G.Matkarimova, F.Jurayeva, M.Raximova, B.Xodjayev, pedagogik va psixologik masalalarini A.Q.Munavvarov, S.Ochil, A.Zununnov, M.Ochilov, R.Mahmudov, N.Egamberdiyeva, O.Musurmonova, D.Xoliqov, R.Ubaydullayev, D.Raximova, S.Jurayeva, D.Alimova, O.Bo‘riyev, M.Usmonov, Z.Rasulova, S.Muhiddin, T.Toshboyev, M.Savurov, G‘.Shoumarov, M. Shoumarov, U.Alimov, Z.Ahmedova, Sh.Xalilova kabilar o‘rganishgan. Ushbu izlanishlar oila mustahkamligi masalasi hamma davrlarda, jumladan, hozir ham dolzarb masala ekanini ko‘rsatadi. Biroq mazkur tadqiqotlarda yosh oilalar mustahkamligini ta‘minlashda qadriyatlar transformatsiya jarayonlari ta‘siri alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2024-yilda bajarilgan JHBL-7-son “Oilalarda barqaror ma‘naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiluvchi “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash” veb-portalini yaratish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** yosh oilalarni mustahkamlashda qadriyatlar transformatsiyasining dialektik ta‘sirini aniqlash va ijtimoiy falsafaning kategorial tizimi asosida ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yosh oilalarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi turli qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyot ta‘sirida transformatsiyaga uchrashini tadqiq etish;

globalashuv tufayli oila institutida kuzatilayotgan fenomenal tendensiyalarning oilaviy qadriyatlar transformatsiyasiga ta‘sir ko‘rsatishini o‘rganish;

Yangi O‘zbekistonda yosh oilalarning aksiologik qiyofasi va qadriyatli mo‘ljallari transformatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

qadriyatlarning oila institutining barqarorligini ta‘minlashdagi ta‘sirini oshirish va qadriyatlar transformatsiyasining oiladagi ma‘naviy-axloqiy muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha ijtimoiy-falsafiy model ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** yosh oilalar mustahkamligi va qadriyatlar transformatsiyasining dialektik aloqadorligidan iborat.

**Tadqiqotning predmeti** O‘zbekiston sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi jarayonining yosh oilalar mustahkamligiga ta‘siri hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy bilishning analiz va sintez, qiyosiy tahlil, kuzatish, kompleks yondashuv, ijtimoiy so‘rov usullaridan, shuningdek, o‘zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik, obyektivlik hamda mantiqiylik tamoyillaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yosh oilalar mustahkamligiga xizmat qiluvchi lokal, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot dinamikasiga muvofiq

transformatsiyaga uchrashi tizimli, deskriptiv (tasvirlovchi), dinamik va tahliliy aksiologik yondashuvlar orqali ochib berilgan;

nikoh va oilaga nisbatan an'anaviy munosabatning o'zgarishi, oilaviy ajralishlar va noto'liq oilalarning ko'payishi hamda kichik oilalar ulushining oshishi kabi demografik tendensiyalar keksalarni hurmat qilish, sadoqat, ishonch, o'zaro hurmat, oilaning jipsligi kabi oilaviy qadriyatlar transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslangan;

gumanizm, inson qadri, ilm va innovatsion tafakkurning o'zni ortib borishi kabi qadriyatlarning yangilanayotgan O'zbekistondagi qadriyatlar tizimida ustuvor ahamiyat kasb etib borishi tufayli yosh oilalar aksiologik qiyofasi hamda qadriyatli mo'ljallari transformatsiyaga uchrayotganligi vorisiylik, tarixiylik, progressivlik tamoyillari asosida ochib berilgan;

qadriyatlar transformatsiyasining oila institutiga ta'sirini tavsiflovchi maqsadli, sotsiomadaniy, aksiologik, ijtimoiy-integrativ, qo'llab-quvvatlash komponentlaridan iborat qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh oilalarni mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy modeli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Yosh oilalarni mustahkamlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zni” mavzusida sotsiologik tadqiqot natijalari monitoring qilinib, tahliliy ma'lumot ishlab chiqilgan;

qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh oilalarni mustahkamlash, lokal, umumetnik va umuminsoniy qadriyatlarning oila instituti barqarorligini ta'minlashdagi ta'sirini oshirish, qadriyatlar transformatsiyasining oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilingani, OAK ro'yxatidagi tegishli jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan yosh oilalarni mustahkamlashda kompleks yondashuvning zarurati, qadriyatlar transformatsiyasining milliy va umuminsoniy xususiyatlari hamda uning yosh oilalarda sog'lom muhitni shakllantirishdagi ta'siri, mamlakatimizda yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga oid umumlashtirilgan xulosalardan yosh oilalarning qadriyatli mo'ljallarini o'rganishga doir ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa unda ilgari surilgan g'oyalar, xulosa va tavsiyalardan ijtimoiy-amaliy va madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, oila institutini mustahkamlashga va o'zbek xalqi milliy qadriyatlarini targ'ib etishga bag'ishlangan tadbirlarni amalga oshirishda, mazkur yo'nalishda faoliyat olib boruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda boshqa



davlat idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining institutlari faoliyatida foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qadriyatlar transformatsiyasining yosh oilalar mustahkamligiga ta’sirining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o‘rganishga oid olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

yosh oilalar mustahkamligiga xizmat qiluvchi lokal, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot dinamikasiga muvofiq transformatsiyaga uchrashi tizimli, deskriptiv (tasvirlovchi), dinamik va tahliliy aksiologik yondashuvlar orqali ochib berilganligiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining 2024-yil 29-maydagi 02-01/780-sonli ma’lumotnomasi). Natijada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni va 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-son qarorida belgilab berilgan qadriyatlarning o‘zgarib borishi va oilalar, jumladan, yosh oilalarni mustahkamlashda oilaviy qadriyatlar barqarorligi ahamiyatini oshirish, oila instituti hamda oilaviy qadriyatlar tizimida kechayotgan transformatsiya jarayonlari salbiy ta’sirining oldini olishda samarali natijalarga erishilgan;

nikoh va oilaga nisbatan an’anaviy munosabatning o‘zgarishi, oilaviy ajralishlar va noto‘liq oilalarning ko‘payishi hamda kichik oilalar ulushining oshishi kabi demografik tendensiyalar keksalarni hurmat qilish, sadoqat, ishonch, o‘zaro hurmat, oilaning jipsligi kabi oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasiga ta’sir ko‘rsatishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslanganligiga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 6-maydagi 02-12-17-2787-sonli ma’lumotnomasi). Natijada oilaning murakkab ijtimoiy voqelik ekanligi, o‘zida ijtimoiy munosabatlar, jarayonlarning turli shakllarini mujassamlashtirganligi yuzasidan uslubiy materiallar tayyorlandi;

gumanizm, inson qadri, ilm va innovatsion tafakkurning o‘rni ortib borishi yangilanayotgan O‘zbekistondagi qadriyatlar tizimida ustuvor ahamiyat kasb etib barayotgani bois yosh oilalarning aksiologik qiyofasi hamda qadriyatli mo‘ljallari transformatsiyaga uchrayotganligi vorisiylik, tarixiylik, progressivlik tamoyillari asosida ochib berilganligiga oid ilmiy xulosalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VIII yo‘nalishida belgilangan “Milliy qadriyatlar, ma’naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ‘iboti”ning 40-bandini “Jamiyatda va oilada xotin-qizlarning mavqeini ko‘tarish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, ma’naviy sog‘lom muhitni shakllantirish, farzandlar tarbiyasida ayollar mas’ulligini oshirish, xotin-qizlar o‘rtasida boqimandalik holatlari ko‘payishining oldini olish, qizlarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish yuzasidan “Sharq ayoli ma’rifati” targ‘ibot tadbirlarini kuchaytirish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 25-apreldagi 176-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalardan yosh oilalar mustahkamligini ta'minlashda qadriyatlar transformatsiyasining dialektik ta'sirini ijtimoiy falsafaning kategorial tizimi asosida ochib berishga xizmat qilgan;

qadriyatlar transformatsiyasining oila institutiga ta'sirini tavsiflovchi maqsadli, sotsiomadaniy, aksiologik, ijtimoiy-integrativ, qo'llab-quvvatlash komponentlaridan iborat qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh oilalarni mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy modeli ishlab chiqilganligiga oid xulosalar, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalida "Millat va ma'naviyat", "Dugonalar" nomli dasturlarning 2024-yil fevral va aprel oylaridagi sonlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 8-apreldagi 04-36-479-sonli ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi natijasida radio eshituvchilarda ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi hamda oilaga nisbatan qadriyat sifatida munosabat shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu dissertatsiyaning tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida taqdim etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) e'lon etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya "Kirish", uchta bob, "Xulosa", "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati", "Ilovalar"dan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, obyekti, predmeti, metodlari asoslangan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oilalar mustahkamligi muammolarining ilmiy-falsafiy tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida oila va nikoh institutining rivojlanishi, yoshlar ongida "oilalar mustahkamligi" tushunchasini shakllantirishning falsafiy-metodologik asoslari ochib berilgan, shuningdek, diniy manbalarda oilaviy qadriyatlarning transformatsiyasi tahlil qilingan.

Tadqiqotchi fikricha, oila – nikohga yoki qon-qarindoshlik munosabatlariga asoslangan kishilar ijtimoiy birligining dastlabki ko'rinishlaridan biri. Oila sinflar, millatlar, davlatlardan ancha ilgari paydo bo'lgan eng qadimgi ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Oila murakkab ijtimoiy voqelikni ifodalab, o'zida ijtimoiy munosabatlar, jarayonlarning turli shakllarini mujassamlashtiradi, unda

turli-tuman insoniy va ijtimoiy ehtiyojlar qondiriladi. Oila institutining ijtimoiy-tarixiy, huquqiy, ijtimoiy-demografik jihatdan shakllanishi borasida ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan<sup>2</sup> bo‘lsa-da, uning etnologik, etnosotsial hamda aksiologik ahamiyati nuqtai nazardan tahlili hali to‘liq amalga oshirilmagan. To‘g‘ri, bunday tahlilga oid materiallar barcha tadqiqotlarda uchraydi, ammo ular ma‘lum bir ilmiy, falsafiy konsepsiya nuqtai nazaridan jamlanmagan va tahlil qilinmagan.

Dissertant fikricha, antik davr faylasuflari, o‘rta asr allomalari ijodida, shuningdek, yangi davrda ham ko‘plab tadqiqotchilar va olimlar oila institutiga alohida ahamiyat berib, o‘z asarlari hamda ijtimoiy-etnologik qarashlarida ijtimoiy munosabatlar tabiati, uning namoyon bo‘lish xususiyatini aynan oilaviy munosabatlarning negizidan qidirish lozimligi fikrini yoqlab keldilar.

Ushbu bobda “oila” hamda “nikoh” tushunchalari, oilaviy munosabatlarning paydo bo‘lishi, tarixiy taraqqiyotiga oid shakllangan falsafiy hamda diniy qarashlar tahlil etilgan. Xususan, qadimgi yunon falsafasida oilaning ijtimoiy mohiyati, uning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi qarashlarni tahlil etgan Platon, Aristotel kabi klassik faylasuflarning patriarxal oila ijtimoiy munosabatlar, jamiyat hayotining asosi bo‘lishi, davlat esa patriarxal oilalar birlashuvidan paydo bo‘lganligiga oid yondashuvlari<sup>3</sup> izohlanib, bu kabi nuqtai nazar uzoq davrlargacha hukmron bo‘lganligi va oila jamiyatning asosiy negizi, o‘ziga xos bo‘linmas patriarxal institut sifatida idrok etilib kelinganligi ochib berilgan.

Oila institutining tarixiy taraqqiyotida qadimgi Sharq mamlakatlari bo‘lgan Xitoy, Hindiston, Turonning ham o‘rni katta ekanligi ta’kidlanib, Xitoyda konfutsiylik ta’limotiga ko‘ra, ijtimoiy hayot patriarxal oilaviy munosabatlarga asoslanishi<sup>4</sup>, Hindistonda oilaviy munosabatlar tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va mulkiy ko‘rinishda bo‘lib, har biri muayyan darajada oila mustahkamligini ta’minlash omili ekanligiga oid qarashlar, Markaziy Osiyoda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lgan “Avesto”da oila muqaddas dargoh ekanligi, uning barqarorligi va farzand tarbiyasida er-xotinning teng mas’ulligi haqida qarashlarning aks ettirilganligiga oid yondashuvlar mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Tadqiqotchi Sharqda oila instituti mustahkamligiga oid qarashlar islom dini bilan bog‘liq tarzda rivojlanishiga ham e’tibor qaratgan. Xususan, islom ta’limotida oila, nikoh hamda er-xotin munosabatlariga juda katta e’tibor beriladi. Bu masala farz va sunnat darajasiga ko‘tarilib, Qur’oni karim va hadisi shariflarda mazkur masalaga alohida o‘rin berilgan. Islom ta’limotiga ko‘ra, oila har bir jamiyatning boshlang‘ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo‘ladi. Aksincha, oilalarda

---

<sup>2</sup> Qarang: Harman H. A Woman's Work. – Penguin UK, 2017. – P. 416; Cheatham H. E., Stewart J. B. Black families: Interdisciplinary perspectives. – Routledge, 2017. – P. 402.; Шнейдер Л. Б. Семья: оглядываясь вперед. – М.: Издательский дом "Питер", 2013. – С. 368.; Венингер О. Пол и характер. – Ростов на Дону, Феникс, 1998; Семья 1 2. Книга для чтения. – М.: Политиздат, 1991; Убайдуллаева Р.А. Семья в Узбекистане. – Ташкент, 2012. va boshqalar

<sup>3</sup> Платон Ф. Законы. – М.: Русайнс, 2015. – С. 324.

<sup>4</sup> Конфуций и конфуцианство – History, Art and Music. (2 март, 2019) // [https://vk.com/@h\\_a\\_m-konfucii-i-konfucianstvo](https://vk.com/@h_a_m-konfucii-i-konfucianstvo)

parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, halol-xaromning farqi qolmasa, o'sha jamiyat buziladi, tinchi yo'qoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi<sup>5</sup>.

Oilaning muhim vazifalaridan biri urf-odatlarini, qadriyatlar keyingi avlodga yetkazish, bu esa jamiyatda ijtimoiy davomiylikni ta'minlaydi. Oila o'tmishni kelajak bilan bog'laydi. Shu sababdan inson o'z hayoti faqat bugundagina iborat emas, balki o'tmish va kelajakni bog'lovchi ko'priksifatida qarashi lozim. Ana shundagina insonlar oila, oila mustahkamligi, oilaviy munosabatlarni qadriyatsifatida baholab, keyingi avlodga yetkaziladi, uning zaminida hayot zanjiri mavjudligi his qilinadi.

Tadqiqotchi fikricha, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 1994-yildan boshlab har yili 15-may kunini "Xalqaro oila kuni" sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qilingani, shuningdek, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da oila masalasiga ham alohida ahamiyat berilganligi bejiz emas. Jumladan, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 16-moddasida shunday deyilgan: "Balog'atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklovlarisiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o'tayotganlarida ham, nikohda bo'lgan vaqtda ham va nikoh bekor qilinayotganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar<sup>6</sup>. Xalqaro doiradagi hujjatlarda oila va uning mustahkamligi masalasi o'z ifodasini topganligi ushbu ijtimoiy institutning xalqaro darajada katta ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Oila qurish bilan bog'liq qarashlar, an'analar va oilaga qadriyat sifati yondashish Islom dini vujudga kelishidan oldin ham bo'lgan, lekin qadriyatlarning oilada urning va ayolning huquqlari, mas'uliyatlari, oilaning mustahkamligini ta'minlaydigan omil sifatida Islom dinida qat'iy ko'rsatib beriladi. Tadqiqotchi fikricha, diniy manbalarda oilaning tashkil etilishi, uning mustahkamligi, halollik, poklik, farzand tarbiyasi kabi ko'plab masalalar xususida fikr yuritiladi. Xususan, Islom dinida oila tashkil qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsad ham halollikni, poklikni nazarda tutadi. Islomda insonlar oilaviy hayotda halol va pok yashashini ko'zlab, ular foydasiga "Alloh sizlar uchun o'zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o'g'illar va nabiralar paydo qildi va sizlarni pok narsalardan rizqlantiradi..."<sup>7</sup>, degan oyat nozil qilingan.

Umuman olganda, dissertant oilaviy etnoan'analarni xalq madaniyati, turmush tarzi, tafakkuri va orzu-istaklaridan alohida talqin etish mumkin emas, deb hisoblaydi. Alohida oilaviy etnoan'ana yo'q, u mudom xalq madaniyati va qadriyatlarini sintezi orqali idrok etiladi, etnoan'analar, avvalo, oilada qaror topishi tabiiy hol. Oila hayotidan barqaror joy olgan, oila a'zolarining ma'naviy-ruhiy, mafkuraviy e'tiqodiga muvofiq kelgan, ularni mustahkamlashga xizmat qilgan urf-odatlar davrlar o'tib an'anaga aylangan. Etnoan'anaga aylanmagan urf-odatlar tarix sahnasidan, xalq hayotidan tushib qolgan. Azaldan inson hayoti, oilaviy

---

<sup>5</sup> Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol nashr, 2021. – B. 5.

<sup>6</sup> Universal Declaration of Human Rights. United Nations General Assembly. – Paris, 10 December 1948 (General Assembly resolution 217 A) // <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

<sup>7</sup> Abdulaziz Mansur. "Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi". – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2009. (Nahl surasi, 72-oyat).

munosabatlar xilma-xil urf-odatlar asosiga qurilgan bo'lib, oila institutining barqarorligi ham ushbu etnoan'analarga asoslanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Qadriyatlar transformatsiyasining milliy va umuminsoniy xususiyatlari”** deb nomlangan bo'lib, unda qadriyatlar transformatsiya jarayonining umumiy tasnifiga e'tibor qaratilib, uning milliy va umuminsoniy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Xususan, qadriyatlarning o'zgarib borishi va oilalar, jumladan, yosh oilalarning mustahkamligi, oilaviy qadriyatlarning barqarorligi masalasiga to'xtalib o'tilib, ularning dialektik aloqadorligi yoritib berilgan. Oila instituti hamda oilaviy qadriyatlar tizimida kechayotgan transformatsiya jarayonlari aslida qanday jarayon: evolyutsion jarayonmi yoki oilaning inqirozimi, degan savolga javob berishga harakat qilingan.

Shuningdek, qadriyatlar transformatsiyasining milliy va umuminsoniy xususiyatlariga ham e'tibor qaratilib, mazkur o'ziga xoslik yosh oilalar mustahkamligiga ta'siri, qaysi darajadagi qadriyatlar transformatsiyasi oiladagi ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy muhit barqarorligiga qay tarzda ta'sir ko'rsatishi masalalari tahlil qilingan. Milliy va umumbashariy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi ularning transformatsiyasida ham aks etishi hamda mazkur tendensiyaning oila instituti mustahkamligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi haqida fikr yuritilgan.

Tadqiqotchi fikricha, qadriyatlar transformatsiyasi jamiyat, uning tarkibidagi turli ijtimoiy birliklar, guruhlar yoki alohida bir insondagi mavjud qadriyatlar tizimining tub va tizimli ravishda o'zgarishi bilan bog'liq fenomenal jarayon hisoblanadi. Qadriyatlar tizimidagi transformatsion o'zgarishlar birdaniga sodir bo'lmaydi, muayyan qadriyatlar o'zgarishi, yangicha mohiyat kasb etishi uchun bir necha yildan bir necha o'n yilgacha vaqt o'tishi talab etiladi.

Qadriyatlar transformatsiyasi hodisasining sodir bo'lishiga turli omillar sabab bo'lishi mumkin. Masalan, ijtimoiy taraqqiyot, globallashuv, texnologik rivojlanish, jamiyatdagi turli inqirozlar, migratsiya va boshqa omillar qadriyatlar transformatsiyasiga olib kelishi mumkin.

Qadriyatlar ular qaror topgan jamiyat har bir a'zosi, har bir ijtimoiy guruh yoki toifaning hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mavjud qadriyatlar transformatsiyasi, yangi qadriyatlar shakllanishi jarayonlari ko'proq jamiyatdagi yoshlar tomonidan amalga oshiriladi. Chunki aynan yoshlar o'zgaruvchanlikka moyil, shaxs sifatida hali to'laqonli shakllanib ulgurmagan, shu sababli ularda jamiyat qolgan qismidan ajralib turgan notanish madaniyat va axloq elementlariga ta'sirchanlik, taqlid qilish istagi kuchli bo'ladi. Aynan ular qadriyatlar transformatsiyasida faol ishtirok etishadi, qabul qiluvchi, tashuvchi rollarini bajarishadi. O'z navbatida, bunday yoshlarning taqdiri, ularning shaxslararo munosabatlarda barqaror ekanligi, yosh oilalarning mustahkamligi kabi jihatlar moddiy, iqtisodiy, axloqiy, ma'naviy qadriyatlar tizimining qanday holatda ekanligiga ham bog'liq.

Mazkur bobda dissertant “yosh oila” tushunchasiga e'tibor qaratadi, “yosh oila” tushunchasi, odatda, oila qurganiga ko'p vaqt bo'lmagan, nikohlanuvchilar, ya'ni er va xotinning yoshi o'ttiz yoshdan oshmagan oilalarga nisbatan

qo'llaniladi<sup>8</sup>. O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligiga muvofiq, 18 yosh yigitlar va qizlar uchun minimum nikoh yoshi sifatida belgilangan. Ba'zi uzrli holatlarda esa nikoh yoshi ko'pi bilan bir yilga kamaytirilishi mumkin<sup>9</sup>. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yosh oila – er va xotin 18 (ba'zi holatlarda 17) yoshdan oshgan 30 yoshga to'lmagan oila hisoblanib, uning tarkibiga, agarda mavjud bo'lsa, mazkur er-xotinning farzandlari ham kiritiladi. Ushbu oila yangi munosabatlar (shaxslararo va oila ichidagi), yangi maqom (kelinning, yosh oilaning haq-huquqlari), yangi iqtisodiy holat (yosh oilaning moliyaviy ta'minoti, shaxsiy moliyaviy manbalar), yangi turmush yo'nalishlarini shakllantirish bosqichida bo'ladi. Shu tufayli ham yosh oilaga jamiyatda alohida e'tibor berilishi, davlat va jamiyat tomonidan uning huquqlari, manfaatlari muhofaza qilinishi, barqarorligi, mustahkamligi ta'minlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi talab etiladi.

Tadqiqotchi fikricha, yosh oilaning mustahkamligi ko'plab faktorlarga bog'liq bo'lib, quyidagi omillar mazkur jarayonga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi:

- kuyov va kelinning axloqiy, psixologik, jismoniy, reproduktiv, iqtisodiy jihatdan oila qurishga tayyorligi;
- nikohda tomonlarning tengligi va roziligi inobatga olinishi;
- kuyov va kelin o'rtasida barqaror psixologik, axloqiy, estetik munosabatning mavjudligi;
- oilada vazifalar va resurslar taqsimoti adolatli bo'lishi;
- oiladagi qolgan a'zolar (ota-ona, aka-uka, opa-singil va boshqalar)ning yosh oilani qo'llab-quvvatlashi va boshqalar.

Dissertant bugungi kunga kelib, rivojlangan mamlakatlarda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi va oila institutining inqirozi quyidagi uch demografik ko'rsatkichda o'z aksini topayotganligini ta'kidlaydi:

1) Oilalar nuklearizatsiyasi, ya'ni uch avloddan tarkib topgan (farzand – ota-ona –bobo-buvi) an'anaviy oilalar ulushining kamayib, ikki avlod vakillaridan iborat (farzand –ota-ona) oilalarning soni ortib borishi<sup>10</sup>, an'anaviy oilaviy qadriyatlarning transformatsiyaga uchrashi, oilasi va voyaga yetgan farzandlari qaramog'idan tashqarida bo'lgan yolg'iz keksalar soni ortishi;

2) Qonuniy nikoh tuzishning salmog'i kamayishi<sup>11</sup>, natijada nikohsiz yashash hamda fuqarolik nikohining soni ortishi, nikohdan tashqari tug'ilgan bolalarning ko'payishi, noto'liq oilalar, yolg'iz ona yoki yolg'iz otalar soni ortishi, takroriy nikohdagi oilalar hamda otasi yoki onasi farzand uchun biologik qarindosh bo'lmagan yoki har xil nikohdan tug'ilgan bolalardan tarkib topgan oilalar sonining o'sib borishi;

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-3026246>

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan Oila Kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-104720>

<sup>10</sup> Monostori J. Three-generation households in a Central and Eastern European country: The case of Hungary //Social Inclusion. – 2023. – T. 11. – №. 1. – p. 256-268.

<sup>11</sup> Кучмаева О.В., Кучмаев М.Г., Петрякова О.Л. Трансформация института семьи и семейные ценности //Вестник славянских культур. – 2009. – Т. 13. – №. 3. – С. 20-29.

3) Bir yoki ikki bolali, ya'ni kichik oilalar ulushining ortishi<sup>12</sup>, bunda oilalar iqtisodiy, madaniy, reproduktiv omillar ta'sirida bir yoki ikki bolali bo'lishni ma'qul ko'rishi.

Mazkur bobda qadriyatlar transformatsiyasi fenomenining ijtimoiy ahamiyatini anglash uchun ularning milliy yoki umuminsoniy mohiyatini tushunish talab etilishi, milliylik va umuminsoniylik dialektikasida har ikki fenomenning o'xshash va farqli jihatlari mavjud ekanligiga e'tibor qaratish lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Dissertant milliylik va umuminsoniylikning umumiy va farqli jihatlari tasniflab, mazkur ikki fenomenning qadriyatlar transformatsiyasi bilan bog'liqligini ochib bergan.

Tadqiqotchi fikricha, qadriyatlarning transformatsiyasi faqatgina aksiologik mohiyat kasb etmaydi. Chunki qadriyatlar, xususan, ma'naviy qadriyatlar hamda ularning mazmunan va mohiyatan o'zgarib borishi individual va ijtimoiy ongda sodir bo'ladi. Shu tufayli qadriyatlar transformatsiyasi hodisasining gnoseologik, epistemologik xususiyatlariga ham e'tibor qaratish lozim. Gnoseologik jihatdan qadriyatlar transformatsiyasiga baho berganda, mazkur fenomenal hodisaning faqatgina qadriyatlar o'zgarishini qamrab olmasdan, qadriyatlarga nisbatan ongning turli darajalarida munosabat ham o'zgarishi sifatida yondashish mumkin. Ya'ni, qadriyatlar transformatsiyasi qadriyatlarga nisbatan individual va ijtimoiy qarashlar o'zgarishidan iborat.

Qadriyatlarga nisbatan munosabatning transformatsiyasi jamiyat yoki butun insoniyat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy-tarixiy nuqtai nazardan muayyan millat ehtiyojiga aylangan, ayni holatida kuchli ijtimoiy zarurat hisoblangan ideallar, axloqiy yoki ma'naviy tushunchalar qadriyatlar tizimida asosiy o'ringa chiqib boraveradi. Ya'ni, har qanday qadriyatlar tizimidagi transformatsion jarayonlar, u milliy yoki umuminsoniy darajada bo'lishidan qat'iy nazar, ijtimoiy ehtiyojning pirovard natijasi hisoblanadi hamda unga nisbatan faqatgina ijtimoiy-tarixiy kontekstdan kelib chiqib, xulosa qilish mumkin.

Dissertant fikricha, qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni yosh oilaning ijtimoiy-ma'naviy muhitini shakllantirishda an'anaviy oila tuzilmasi va an'anaviy oilaviy qadriyatlar tizimidan uzoqlashish, oiladagi avlodlar o'rtasida axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq tushunmovchilik vujudga kelishi kabi salbiy, shuningdek, yosh oila vakillarini tolerant, ochiq fikrli va o'zgarishlarga nisbatan moslashuvchan bo'lishi singari ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mazkur bobda tadqiqotchi qadriyatlar transformatsiyasi va yosh oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish o'rtasidagi dialektik bog'liqlik jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlarning aksiologik ideallar atrofida qayta shakllanishida yaqqol namoyon bo'lishiga ham e'tibor qaratadi. Shunday o'ziga xos transformatsion jarayonlardan biri jamiyatda va uning tarkibiy elementi bo'lgan oilada xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning qaytadan shakllanishi, ya'ni gender tengligi bilan bog'liq. Jamiyatda genderga asoslangan qadriyatlar tizimining transformatsiyaga uchrashi yosh oilalarda ma'naviy muhitning

---

<sup>12</sup> Breton D., Prioux F. The one-child family: France in the European context //Demographic research. – 2009. – T. 20. – p. 657-692.



shakllanish bosqichiga katta ta'sir ko'rsatadi, yosh kelin va kuyov, ular voyaga yetgan oilalarda mavjud bo'lgan gender madaniyat o'rtasidagi farq yuzaga chiqadi. Qadriyatlar transformatsiyasining ham milliy, ham umuminsoniy xususiyatlariga, shu bilan bir qatorda, oilaning ijtimoiy-ma'naviy muhitiga taalluqli bo'lgan yana bir globallashuv tendensiyasi – jamiyatdagi sekulyar qadriyatlar va sakral qadriyatlar o'rtasidagi dialektik qarama-qarshilik hisoblanadi. Din va unga nisbatan jamiyatda shakllangan munosabat oilalar, xususan, yosh oilalarning ma'naviy hayotida katta ta'sir kuchiga ega. Chunki din faqatgina ibodatlar majmuasi yoki ma'lum rituellarni o'z ichiga olmaydi, balki din insonning turmush tarzi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi O‘zbekistonda qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh oilalar mustahkamligi”** deb nomlangan bo'lib, O'zbekistonda sodir bo'layotgan qadriyatlar tizimidagi transformatsion o'zgarishlar, ma'naviy yangilanishlarning sotsiomadaniy va falsafiy xususiyatlari, zamonaviy o'zbek jamiyatida yosh oilalarning aksiologik qiyofasi, yosh oilalar mustahkamligida qadriyatlar roli, qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh oilalarning mustahkamligini ta'minlashda mavjud muammolar, vazifalar va istiqbol rejalar ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Zero, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatiga aksiologik jihatdan yondashilgan, Yangi O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati islohotlarning asosiy mazmuni inson qadriga, uning erkinliklari, manfaatlarini ta'minlashga yo'nalganligi bilan namoyon bo'ladi. Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlarning mazmunida ham aynan shu tamoyil yotadi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar qadriyatlar tizimining ham transformatsiyasini o'zida aks ettiradi.

Yangi O'zbekistonda qadriyatlar transformatsiyasi uning an'anaviyligi va tadrijiyligi tamoyiliga ham tayanadi, o'zgarishlar jarayonida an'anaviy qadriyatlar, urf-odat va an'analar to'liq inkor etilmaydi, takomillashtiriladi, zamon talablari bilan uyg'unlashadi. Qadriyatlar an'anaviyligi va tadrijiyligi millat tomonidan asrlar davomida to'plangan moddiy va ma'naviy boyliklarni, qadriyatlarni vorisiylik tamoyili asosida keyingi avlodlarga yetkazish, mazkur jarayonda tarixiy taraqqiyot va ijtimoiy hayot talablariga muvofiq evolyutsion shaklda muntazam boyib yoki yangilanib boradigan ma'naviy tendensiyalar namoyon bo'lishini ifodalaydi<sup>13</sup>. Aynan an'anaviylik va tadrijiylik tamoyili jamiyat barqaror rivojlanishi, ma'naviy tarbiyaning izchilligini ta'minlaydi, qadriyatlar tub sifatiy o'zgarishlarining millat uchun og'riqli, murakkab va muammoli bo'lishining oldini oladi.

Qadriyatlarning namoyon bo'lishi, ijtimoiy hayotda o'z aksini topishini kuzatish oson emas. Buning uchun jamiyatda mavjud ijtimoiy, siyosiy jarayonlar bilan bog'liq o'ziga xos ko'rsatkichlar, indikatorlarga murojaat qilish mumkin. Misol uchun, shunday indikator vazifasini mustaqillikdan keyingi yillarning nomlari bajarishi mumkin. Umuman olganda, yil nomlari ma'lum darajada ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi, ijtimoiy hayotda, xususan,

---

<sup>13</sup> Nazarov Q., To'xtayev H. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2022. – B. 230



madaniy, ma'naviy, axloqiy muhitda modernizatsiyaning yangi yo'nalishlarini belgilab beradi. Yil nomiga mos tarzda shu sohaga butun yil davomida e'tibor qaratiladi, yil nomida aks etgan tushunchalarning qadri oshib, ijtimoiy modernizatsiya yadrosini tashkil etadi.

Bugungi kunga kelib, Yangi O'zbekistonda sodir bo'layotgan qadriyatlar transformatsiyasi ham qadriyatlarning umumiy rivojlanish qonuniyatiga bo'ysunib, o'zida ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlarni aks ettirib bormoqda. Xususan, bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy, milliy hamda diniy qadriyatlarni baholash va shakllantirishda yana bir ma'naviy indikator sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi hisoblanuvchi va ijtimoiy samarasi amaliyotda o'z isbotini topib borayotgan "Temir daftar", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Mehr daftari" kabi dasturlarni e'tirof etish mumkin<sup>14</sup>.

